

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**G‘ANIYEVA MAFTUNA ABDUAZIZ QIZI**

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINI  
O‘QUVCHILARNI MANTIQUIY FIKRLASHGA METODIK  
TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (ПхД) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**G'aniyeva Maftuna Abduaziz qizi**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga metodik tayyorgarligini takomillashtirish..... 3

**Ганиева Мафтуна Абдуазизовна**

Совершенствование методической подготовки будущих учителей начальных классов к формированию логического мышления учащихся..... 24

**Ganieva Maftuna Abduaziz qizi**

Improving the methodological preparation of future primary school teachers to teach students logical thinking..... 47

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 51

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**G‘ANIYEVA MAFTUNA ABDUAZIZ QIZI**

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINI  
O‘QUVCHILARNI MANTIQUIY FIKRLASHGA METODIK  
TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.3.PhD/Ped4980 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertasiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi-[www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz) hamda «ZiyoNet axborot-ta’lim portalida-[www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdullayeva Barno Sayfutdinovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Shodiyeva Matluba Jo‘rayevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Mambetova Lobar Mirzavali qizi**  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertasiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-76-51, e-mail: tdpu\_kengash@edu.uz.

Dissertasiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-76-51.

Dissertasiya avtoreferati 2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ da tarqatildi.

(2025 yil“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi

**Z.N.Mamarajabova**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, pedagogika  
fanlari doktori, professor

**R.G.Isyanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, p.f.n., dotsent

**M.E.Mamarajabov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, p.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi anotatsiyasi)

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta'lim tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning o'yinli didaktik texnologiyalari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga oid metodik yondashuvlarni takomillashtirish, o'qituvchilarni ijodiy hamda reflektiv faoliyatga tayyorlash, o'quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirish, raqamli ta'lim dasturlarini takomillashtirish, yuqori darajali kadrlar tayyorlash tizimi va bola shaxsining analitik tafakkurini rivojlantirish, keng dunyoqarash va obyektiv fikrlash asoslarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv qobiliyatini shakllantirish, ta'lim jarayonini modellashtirish, loyihalashtirishga tayyorgarlikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion salohiyati va kasbiy ijodkorligini rivojlantirish, ta'lim sifatini ko'tarish, modulli ta'limni yo'lga qo'yish, o'quvchilarda intellektual kommunikativlikni faollashtirish, reflektiv tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim jarayonining zamonaviy demokratik jamiyat talablariga mos holda yangilanishi, uning epistemologik va metodologik asoslarini takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Ta'lim sifati, ayniqsa, boshlang'ich bosqichida fundamental asosda takomillashmoqda. Bu jarayonda kognitiv psixologiya, assotsiativ ta'lim va reflektiv pedagogika tamoyillari asosida mantiqiy tafakkur, deduktiv va induktiv fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan umumslubiy tizimlar ishlab chiqilmoqda" deb ta'kidlangan<sup>1</sup>. Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga metodik tayyorgarligini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2018 yil 25 yanvardagi PF-5313-son "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" to'g'risidagi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-289-sonli, 2024-yil 16-

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.

oktabrdagi “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘grisida” PF-158-sonli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning 1.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamizda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni metodik tayyorgarligi va intellektual qobiliyatni rivojlantirish masalalari B.S.Abdullaeva, A.Abduqodirov, B.R.Adizov, G.R.Akramova, G.T.Boymurodova, N.G‘.Dilova, O.Musurmonova, G.N.Najmiddinova, X.P.Nazarova, R.Djuraev, U.Inoyatov, X.Ibraimov, Sh.Abdullaeva, D.Ro‘zieva, D.Sharipova, J.G. Yo‘ldoshevlarni ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. S.R. Rahmonqulov – mantiqiy tafakkurni didaktik asoslarini o‘rgangan. G.Ma‘rufov – zamonaviy ta’lim texnologiyalari orqali o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini shakllantirish masalalariga e’tibor qaratgan. M.Ibragimov tadqiqot ishlarida boshlang‘ich sinflarda tafakkur elementlarini shakllantirishni tadqiq qilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida ta’limning boshlang‘ich pog‘onasida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, ushbu jarayonda o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini orttirishga oid fundamental tadqiqotlar L.V.Zankov, V.V.Davidov, D.B.Elkonin, O.Gazman, E.Zeer, L.Tarita, Ye.Kazakova, Ye.Aleksandrova, M.Pevzner, A.Maslou, A.Kombas, A.M.Beisenbayevalarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

Sohaning xorijiy mamlakat olimlaridan J.Bruner, E.Fromm, M.Mauerman, A.G.Maslou, D.Stil, K.Meredis, Ch. Templ, A.Hargreaves, H.D.Schmidt, R.Sears, P.V.Sysoyevlar tomonidan kichik yoshdagi o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatishda bo‘lajak mutaxassisilarning o‘rganishi lozim bo‘lgan jihatlar, mantiqiy fikrlashda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishni takomillashtirish zarurati va shunga yaqin boshqa masalalarni ilmiy nuqtai nazardan asoslab berganlar.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-kasbiy barkamol shaxsni shakllantirishning pedagogik texnologiyalari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan(2022-2024).

**Tadqiqotning maqsadi** bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga metodik tayyorgarligini takomillashtirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga metodik tayyorgarligini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga metodik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga metodik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasining samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Buxoro davlat pedagogika instituti, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti va Guliston davlat universitetining 867 nafar talabalari jalb qilingan.

**Tadqiqotning predmetini** bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonining shakllari, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan metodlar majmui qo'llanildi: nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), tarbiyachiik eksperiment va matematik metodlar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshq).

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik heuristika, kreativ didaktika va reflektiv ta'lim texnologiyalariga ustuvorlik berish, psixologik omillarni tizimlashtirish hamda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan tarixiylik yondashuvni kreativ o'qitish mazmuni, metodlari va strategiyalariga moslashtirish asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga metodik tayyorgarligini rivojlantirish modeli konstruktizm, faoliyatga asoslangan va individuallashtirilgan didaktik yondashuvlarni integratsiyalash, faol o'qitish faoliyatini tashkil etishning tarkibiy komponentlarini aniqlashtirish, mantiqiy, tahliliy fikrlashlarini, mustaqil fikr bildirishga asoslangan mantiqiy izchillikni ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga metodik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi mantiqiy fikrlashga xizmat qiluvchi o'quv materiallari, topshiriqlarni bajarishda muammoli o'qitish metodlari (keys, muammoli vaziyat)ni geymifatsion metodlariga uyg'unlashtirgan holda o'qitish, hamda o'quvchilarda mantiqiy tafakkur va reflektiv tahlil ko'nikmalarini shakllantirish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga metodik tayyorlashni rivojlantirish samaradorligi metodik tayyorgarlikni amalga oshirish bosqichlari va kognitiv, jarayonli va kreativ baholash mezonlari, kreativ, qisman izlanuvchi, reproduktiv darajalarni aniqlashtirish hamda mantiqiy fikrlashga

oid metodik tayyorgarlikni rivojlantirishning sifat darajasining dinamikligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga metodik tayyorgarligini takomillashtirishga doir metodik ko'rsatmalar va tavsiyalar, "O'yin o'ynab o'rganamiz" texnologiyasi takomillashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun "Ona tili o'qitish metodikasi" (Guliston davlat universiteti kengashining 2024-yil 27-fevralfagi 25-sonli buyrug'i) nomli o'quv qo'llanma yaratilgan;

bo'lajak mutaxasislarni boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy fikrlashga o'rgatishi bo'yicha metodik va mahorat ko'nikmalarini takomillashtirishga va uni amaliyotga tatbiq etish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llangan alohida pedagogik yondashuvlar, interfaol ta'lim texnologiyalari, uslub va nazariy materiallarning rasmiy manbalardan olinganligi, tadqiqot natijalari va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik usullar vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga metodik tayyorgarligini takomillashtirishning dolzarb masala sifatida ilmiy shart-sharoitlarini aniqlanganligi; ushbu tizimdagi bo'lajak mutaxasislar uchun alohida mantiqiy yondashuvlarga asoslangan dasturlar ishlab chiqilganligi; ta'limni mantiqiy fikrlash va obyektiv yondashuv asosida (bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini individual tarzda) takomillashtirish metodikasiga yo'naltirilgan o'quv-uslubiy va nazariy-pedagogik ta'minot (ilmiy-metodik tavsiyalar)ning mavjudligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga metodik tayyorgarligini takomillashtirish modelini amaliyotga joriy etish, ushbu tizimda va bevosita kadrlarni tayorlash jarayonida mantiqan teran fikrlashga undovchi o'qitish dasturlarini yaratish hamda amaliyotda foydalanish metodikasining ishlab chiqilganligi va ulardan bo'lajak soha mutaxasislari ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari, rahbarlari, uslubchilari va quyi pog'onada ish olib boruvchilar o'z faoliyatlarida hamda malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik heuristika, kreativ didaktika va reflektiv ta'lim texnologiyalariga ustuvorlik berish, psixologik omillarni tizimlashtirish hamda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan tarixiylik yondashuvni kreativ o'qitish mazmuni, metodlari va

strategiyalariga moslashtirish asosida aniqlashtirishga oid takliflar “Ona tili o‘qitish metodikasi” (O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 14-maydagi 11-05-3098/04 raqamli ma’lumotnomasi) nomli o‘quv qo‘llanmaga singdirilgan. Natijada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini metodik tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik muammolarini tahlil qilishga erishilgan;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga metodik tayyorgarligini rivojlantirish modeli konstruktizm, faoliyatga asoslangan va individuallashtirilgan didaktik yondashuvlarni integratsiyalash, faol o‘qitish faoliyatini tashkil etishning tarkibiy komponentlarini aniqlashtirish, mantiqiy, tahliliy fikrlashlarini, mustaqil fikr bildirishga asoslangan mantiqiy izchillikni ta’minlash asosida takomillashtirishga doir tavsiyalar “Ona tili o‘qitish metodikasi” (O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 14-maydagi 11-05-3098/04 raqamli ma’lumotnomasi) nomli o‘quv qo‘llanma doirasida belgilangan vazifalarni amalda bajarishda foydalanilgan. Natijada, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirishga erishilgan;

boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga metodik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi mantiqiy fikrlashga xizmat qiluvchi o‘quv materiallari, topshiriqlarni bajarishda muammoli o‘qitish metodlari (keys, muammoli vaziyat)ni geymifatsion metodlariga uyg‘unlashtirgan holda o‘qitish, hamda o‘quvchilarda mantiqiy tafakkur va reflektiv tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish asosida takomillashtirishga oid takliflar “Ona tili o‘qitish metodikasi” (O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 14-maydagi 11-05-3098/04 raqamli ma’lumotnomasi) nomli o‘quv qo‘llanma doirasida belgilangan vazifalarni amalda bajarishda foydalanilgan. Natijada, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashini rivojlantirish metodikasi innovatsion texnologiyalar va geymifikatsiyalar orqali takomillashtirilgan;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga metodik tayyorlashni rivojlantirish samaradorligi metodik tayyorgarlikni amalga oshirish bosqichlari va kognitiv, jarayonli va kreativ baholash mezonlari, kreativ, qisman izlanuvchi, reproduktiv darajalarni aniqlashtirish hamda mantiqiy fikrlashga oid metodik tayyorgarlikni rivojlantirishning sifat darajasining dinamikligini ta’minlash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar “Ona tili o‘qitish metodikasi” (O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 14-maydagi 11-05-3098/04 raqamli ma’lumotnomasi) nomli o‘quv qo‘llanma doirasida belgilangan vazifalarni amalda bajarishda foydalanilgan. Natijada talabalarni mantiqiy fikrlashini rivojlanganligi baholash mezonlari va darajasiga mosligini orqali aniqlashga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 16ta ilmiy-metodik ish, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6ta, shundan 4tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnalda nashr ettirilgan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya kirish, 3 bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertasiya hajmi 151 betni tashkil etadi.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti, ishning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan bo'lib, unda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish — zamonaviy pedagogikaning ijtimoiy-pedagogik muammosi sifatida ilmiy asoslab berilgan. Ta'lim sohasida global va milliy miqyosda kechayotgan islohotlar, ularning bo'lajak o'qituvchilar tayyorgarligiga ta'siri, metodik salohiyatning tarkibiy xususiyatlari va zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvlar bilan uzviy bog'liqligi keng tahlil etilgan. Shuningdek, metodik tayyorgarlikni faqatgina kasbiy tayyorgarlik emas, balki shaxsiy pozitsiyani anglash, refleksiya qilish va pedagogik moslashuvchanlikni namoyon qilish nuqtayi nazaridan ham ko'rib chiqish zarurligi asoslab berilgan.

Xususan, mantiqiy tafakkurni shakllantirishda metodik yondashuvlarning o'rni, innovatsion pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi, o'qituvchi shaxsining kasbiy faolligi, tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish ko'nikmalarining shakllanishi bilan bevosita bog'liqligi ochib berilgan. Shu maqsadda Krillov, Bruner, Gagne, Goodman, Dewey, Vygotskiylarning nazariy qarashlari asos qilib olingan. Jumladan, Deweyning tajribaviy ta'lim modeli, Gagne tomonidan taklif etilgan o'quv faoliyatining bosqichli tuzilmasi, Vygotskiyning proksimal rivojlanish zonasi haqidagi nazariyasi asosida o'qituvchi faoliyatining samaradorligini oshirish yo'llari yoritilgan. Ularning yondashuvlari asosida shaxsiylashtirilgan, faoliyatga asoslangan va konstruktiv ta'lim texnologiyalari alohida tahlil etiladi.

Tarixiy-nazariy aspektda tafakkurga oid qarashlar Arastu va Abu Ali ibn Sino asarlari misolida keng sharhlangan. Arastuning formal mantiq'i, hukm tuzilmasi va deduktiv-induktiv tafakkur shakllari mantiqiy fikrlashning shakllanishida muhim manba sifatida baholanadi. Ibn Sinoning “Donishnoma” va “Arastu metafizikasiga sharh” asarlarida tafakkur subyekt, predikat va bog'lovchi orqali izchil hukm qilish vositasi sifatida ta'riflanadi. Uning fikricha, tafakkur orqali inson borliq haqidagi tasavvurlarini to'g'rilab, bilimni mustahkamlashi mumkin. Bu esa, bo'lajak o'qituvchilar uchun didaktik mantiqiy kompetensiyani chuqur egallash zarurligini ko'rsatadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishda interfaol metodlar, vizual vositalar, reflektiv topshiriqlar, ijodiy o'yin elementlari va integratsion mashg'ulotlar orqali olib boriladigan metodik faoliyatning o'rni asoslab berilgan. Shu bilan birga, ta'lim muhitining didaktik jihatdan boyitilishi, o'quvchilarning bilimlarni tahliliy o'zlashtirishiga xizmat qiluvchi yondashuvlarning pedagogik strategiyadagi aks etishi tahlil qilinadi. Ayniqsa, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining integratsiyasi orqali o'qituvchining refleksiv faoliyatini rag'batlantirish, ularni nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi bilan bog'lash imkoniyatlari chuqur ochib berilgan. Shuningdek, metodik tayyorgarlikning zaruriy shart-sharoitlari, rivojlanish bosqichlari, zamonaviy o'quv texnologiyalari bilan uyg'unligi, shaxsiylashtirilgan ta'lim muhitida pedagogning kreativ va reflektiv imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish holatlari batafsil ochib berilgan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-mantiqiy salohiyati, ular tomonidan tanlangan metodlarning tizimliliigi, baholash mezonlari va shaxsga yo'naltirilgan metodik konstruksiyalarning roli o'rganilgan. Bu yondashuvlar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy tafakkur kompetensiyasini shakllantirish, ta'limning nazariy va amaliy komponentlarini uyg'unlashtirishga xizmat qilishi ilmiy asoslangan.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik muammolari rejasida tafakkurning nazariy va tarixiy asoslarini ochib berishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ushbu bo'limda tafakkur fenomenining fanlararo nuqtai nazardan keng tahlili amalga oshirilgan. Mantiqiy tafakkur inson ongining faol ijodiy shakli sifatida qaralib, uning shakllanishi tarixiy-madaniy kontekstda, sotsiologik, psixologik va falsafiy yondashuvlar asosida yoritiladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda, zamonaviy texnologik va elektron ta'lim muhitida mantiq elementlaridan foydalanish dolzarb vazifa ekanligi ilmiy asoslab berilgan. Bunda metodik tayyorgarlik darajasi bevosita ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiluvchi strategik omil sifatida maydonga chiqadi. Shu nuqtayi nazardan, didaktik mantiq metodlari orqali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, o'quv materiallarini integrativ model asosida takomillashtirish va interdisiplinar yondashuvlar orqali o'qitish metodikasini tubdan optimallashtirish ilmiy-pedagogik jihatdan alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur bo'limda tafakkurning zamonaviy ta'lim paradigmasidagi o'rni, uning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar, shuningdek, tafakkurni rivojlantirishda pedagogik metodlarning roli asoslab beriladi.

Fiziologiya nuqtai nazaridan tafakkur markaziy asab tizimining murakkab mahsuli sifatida ko'riladi. Bu yerda asab impulslari, reflektor bog'lanishlar va miya korteksining faoliyati tafakkur jarayonining asosiy fiziologik komponentlari sifatida talqin etiladi. Tafakkurning biologik asoslarini tahlil qilish orqali o'qituvchining o'quvchilardagi aqliy faollikni faollashtirish strategiyalari asoslab beriladi. Ayniqsa, Yosh miya faoliyatining plastiklik xususiyati asosida mantiqiy tafakkurga oid yondashuvlarni didaktik nuqtai nazardan yangicha tahlil qilish imkoniyati tug'iladi.

Psixologik yondashuv tafakkurni bilish faoliyatining ichki jarayoni sifatida tushuntiradi. Bu yerda tafakkurning individual, ijtimoiy va madaniy shakllari, shuningdek, umumlashtirish, solishtirish, sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash, xulosalash, baholash va tanqidiy fikr yuritish ko‘nikmalari ta’limiy jarayondagi kognitiv rivojlanish mezonlari sifatida ko‘rsatiladi. Bu jihatlar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalaridan samarali foydalanishida asosiy psixopedagogik tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Muslimov N.Usmonboeva M.Sayfurovlarning fikrlariga ko‘ra, mantiqiy tafakkur - bu shaxsning o‘z oldida turgan vazifalarini obdon fikr-mulohaza qilishi va pedagogik nuqtai nazardan ba’zan tezkor va nostandart hal etish hamda o‘z maqsadlariga erishishning ma’qul, samarali yo‘llarini topishga fikran intilish qobiliyati hisoblanadi. Umuman olganda, mantiqiylik asosan boshqalarga o‘xshamagan g‘oyalarni o‘ylab topish, an’ana tusiga kirib qolgan fikrlashdan qochish hamda muammoli vaziyatlarni tez hamda samarali hal etish yo‘llarini bilish hisoblanadi.

M.Niyozmetovning fikriga ko‘ra, mantiqiy tafakkur – shaxsning izchil, tizimli va asosli fikr yuritish qobiliyatidir. Bu tafakkur orqali inson real hayotiy vaziyatlarga mos qarorlar qabul qilishga o‘rganadi. U mantiqiy tafakkurni odatiy aqliy faoliyatdan farqli tarzda tahliliy, asosli, dalillangan fikrlash shakli sifatida izohlaydi.

A.Qahhorovning fikriga ko‘ra, mantiqiy tafakkur – bu tahliliy fikrlash, sabab-oqibat bog‘liqligini anglash, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish, fikrni aniq izchil ifodalash qobiliyatidir. Bugungi kunda o‘quvchining qanday bilimga egaligi emas, balki uni qanday tahlil qilishi, qanday fikrlashi va qanday asoslab bera olishi muhim. BU esa mantiqiy tafakkur bilan chambarchas bog‘liq.

M.Quronboyevaning fikriga ko‘ra mantiqiy tafakkur nafaqat bolani bilimli qiladi, balki, o‘z fikrini asoslash, turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish va muammoga samarali yechim toppish qobiliyatini ham shakllantiradi. Bugungi kunda ta’lim berish emas, balki fikrlashga o‘rgatish zarur. Aynan mantiqiy tafakkur orqali shaxs mustaqil qaror qabul qiladigan, dalillarga asoslanadigan va hayotda faol ishtirok eta oladigan darajaga yetadi.

Xorijiy adabiyotlarda mantiqiy fikrlash tushunchasiga ta’riflar ko‘p, masalan, E.Fromm mantiqiy tafakkurni ijodiy, analitik va amaliy tafakkur bilan bog‘liq holda talqin qiladi. Uning fikriga ko‘ra, mantiqiy tafakkur-bu insonning muammolarni hal qilish va qarorlar qabul qilishdagi asosiy vositasidir. Uni rivojlantirish orqali nafaqat akademik, balki hayotiy muvaffaqiyat ham oshadi.

J. Dewey fikrlash jarayonini inson tafakkurining markaziy elementi sifatida ko‘rib, uni ongli, izchil, muammoga yo‘naltirilgan aqliy faoliyat deb talqin qiladi. Uning fikricha, mantiqiy tafakkur bu fikrlashning eng yuqori shakli bo‘lib, fikrlarni tartibli, asosli va izchil tarzda bog‘lay olish qobiliyatini anglatadi.

Dissertatsiya ishimizda, mantiqiy fikrlash – bu shunchaki tafakkur emas, balki o‘quvchilarning fikr yuritish madaniyati, muammoli vaziyatlarga to‘g‘ri yondashish, tahliliy o‘ylash, dalillash va xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi ichki intellektual jarayondir. Uni takomillashtirishga yo‘naltirilgan metodik tayyorgarlik o‘qituvchining kasbiy mahoratida markaziy o‘rin tutishi lozim. Boshlang‘ich ta’lim

bosqichida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish – ularning kelgusi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatli o'qishlari, mustaqil fikrlash va hayotiy qarorlar qabul qilish malakalarini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari nafaqat nazariy bilimlarga, balki mantiqiy tafakkurni o'stiruvchi metodik yondashuv va texnologiyalarni puxta egallagan, ularni amaliyotga to'g'ri tatbiq eta oladigan pedagogik kompetensiyalarga ega bo'lishlari zarur.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy tafakkurini takomillashtirish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlar sifatida tashkiliy shart-sharoitlar, muhit sharoitlari, didaktik shart-sharoitlar, psixologik shart-sharoitlar va kasbiy pedagogik sharoitlar keltirib o'tilgan. Ushbu shart-sharoitlarning uyg'unlashuvi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini nafaqat metodik jihatdan, balki psixologik va ijtimoiy-kommunikativ nuqtai nazardan ham mukammallashtirishga xizmat qiluvchi strategik omil sifatida qaralgan. Zamonaviy ta'lim muhitidagi metodik talablar va reflektiv-kommunikativ kompetensiyalar mazmunan asoslab berilgan. Ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida o'qituvchining kasbiy shakllanishida shaxsga yo'naltirilgan, differensial va faoliyatga asoslangan ta'lim muhitining tashkil etilishi pedagogik tayyorgarlikning muhim komponenti sifatida yoritilgan. Ayniqsa, mantiqiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan metodik vositalarning mazmunan mosligi va zamonaviyligi asosiy e'tiborda bo'lgan.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar doirasida reflektivlik va kommunikativlik kompetensiyalari mantiqiy tafakkur rivojlanishining negiziy tayanchiga aylanmoqda. Refleksiya orqali pedagog o'z faoliyatini tahlil qiladi, samaradorligini baholaydi, mustaqil fikrlash asosida ta'lim jarayonini qayta tashkil etadi va yangilikka ochiqlik asosida ta'lim sifatini oshirishga intiladi. Reflektiv yondashuv shaxsiy rivojlanish, ichki motivatsiya va faoliyatni ongli nazorat qilish elementlarini ham o'z ichiga oladi. Kommunikativ kompetensiya esa o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish, ularning fikrini tushunish, asosli javob berish, turli nuqtai nazarlarni muhokama qilish, fikr almashish va inklyuziv o'quv muhitini shakllantirish imkonini beradi. Bu ikki kompetensiyaning uyg'unligi mantiqiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi kuchli psixopedagogik asos bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik individullik — bu o'qituvchining o'z metodik yondashuvlarini, shaxsiy pozitsiyasini va innovatsion qarashlarini mustaqil tarzda namoyon etishidir. Mantiqiy tafakkur esa ushbu individullikning mazmuniy asosi sifatida ko'riladi. Zero, shaxsiy yondashuvlarsiz, eksperiment va refleksiyasiz innovatsiya bo'lmaydi. O'qituvchining o'zi ishlab chiqqan metodik modellar, “O'yin o'ynab o'rganamiz” (gemifikatsion) texnologiyalari, moslashtirilgan topshiriqlar — bularning barchasi reflektiv yondashuv asosida shakllanadi. Bu yondashuvlarda o'qituvchi o'zining kasbiy uslubini, dars o'tkazish manbasini, individual texnikasini doimiy ravishda rivojlantirib boradi.

Shu orqali mantiqiy tafakkur kompetensiyasini rivojlantirishning ichki psixologik va tashqi metodik mexanizmlari uyg'unlashadi. Bunda o'quvchi faoliyatini faollashtirish, fikrlashni tahlil asosida boshqarish va o'z fikriga asosli

yondashish ko'nikmalari shakllanadi. Natijada, bo'lajak o'qituvchi faqat mavjud bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, balki ularni ijodiy o'zgartira oladigan, tahlil asosida yangilab boradigan mutaxassis sifatida kamol topadi. Dissertatsiyaning birinchi bobi yakuniy qismida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy tafakkurini shakllantirishda innovatsion faoliyat, reflektiv yondashuv va shaxsiy pedagogik individullikning metodik asoslari tahlil etilgan. Bugungi ta'limda o'qituvchining roli faqat ma'lumot yetkazuvchi emas, balki metodik dizayner, o'quv muhitining yaratuvchisi va intellektual yetakchi sifatida talqin qilinmoqda. Bu esa uning faoliyatida yangilikka ochiqlik, mustaqil tashabbus, reflektiv tahlil va ijtimoiy mas'uliyat mezonlarini zarur qiladi. Zamonaviy ta'lim paradigmasi o'qituvchini passiv bilim uzatuvchi emas, balki tashabbuskor, o'zini doimiy ravishda yangilab boruvchi va eksperimentator sifatida tasvirlaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga metodik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi”** deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda pedagogik jarayonni takomillashtirishda bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini ilmiy-nazariy asoslashga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga tayyorlashning mazmuni bo'limida metodik tayyorgarlikning zamonaviy ta'lim talablari bilan uyg'unligi, u orqali o'quvchilarda mantiqiy tafakkur kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlari keng yoritilgan.

Metodik tayyorgarlikning asosiy yo'nalishlari — darslarda tahliliy yondashuvni kuchaytirish, interfaol topshiriqlar orqali o'quvchining fikrlash faoliyatini rag'batlantirish va metodlarni individuallashtirishdan iborat. Bo'lajak o'qituvchi nafaqat o'qitish usullarini egallashi, balki ularni sharoitga mos holda qayta modellashtira olishi, turli darajadagi o'quvchilar bilan individual ishlashga qodir bo'lishi zarur. Shu bois tayyorgarlik mazmuni faqat metodlar to'plami emas, balki ularni baholay olish, tanlab qo'llay olish, muqobil yondashuvlar ishlab chiqish, xatoliklardan xulosa chiqarish va reflektiv tahlil qilish salohiyatini ham qamrab oladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini amalga oshirishda uchta asosiy yondashuv — konstruktiv, reflektiv va ijtimoiy yondashuvlar alohida o'rin egallaydi. Konstruktiv yondashuv — o'quvchining mustaqil bilim olishini rag'batlantiruvchi faol strategiyalarni qo'llashni nazarda tutadi. Bu jarayonda bo'lajak o'qituvchilar o'z bilimlarini faoliyat asosida amaliy ko'nikmaga aylantiradi. Reflektiv yondashuv — o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qila olishini, o'quvchilarning fikrlarini qayta ishlash va yangilik kiritish qobiliyatini ta'minlaydi. Bu yondashuv orqali o'qituvchi har bir darsdan keyin o'zining pedagogik faoliyatiga tanqidiy va analitik baho berib, takomillashuv yo'nalishlarini aniqlaydi. Ijtimoiy yondashuv esa muloqotga asoslangan, hamkorlikda ta'lim olib borish, guruhviy fikrlash va jamoaviy qaror qabul qilish madaniyatini shakllantirishni ko'zda tutadi. Ayniqsa, kommunikativ kompetensiya va fikr bildirish madaniyatini shakllantirish orqali mantiqiy fikrlashni guruhviy muhitda rivojlantirish strategiyasi asoslanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishga doir tamoyillar tizimi, bosqichma-bosqich metodik yondashuvlar,

ularni amaliyotda joriy etish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlar chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda bu yo'nalishda metodologik asos bo'lib xizmat qiluvchi tamoyillar — moslashuvchanlik, ilmiylik, izchillik va mantiqiylik, ko'rsatmalilik, nazariya va amaliyotning birligi, ajratib ko'rsatilgan. Ilmiylik tamoyili — mantiqiy tafakkurni rivojlantirish jarayonida nazariy bilimlar bilan chuqur tanishishni ta'minlaydi. Moslashuvchanlik — pedagogning o'quvchilarning individual psixologik, yosh va kognitiv xususiyatlariga mos metodlarni tanlashga tayyorligini bildiradi. Tizimlilik va mantiqiylik — metodik faoliyatni bosqichma-bosqich, natijadorlikka yo'naltirilgan tarzda tashkil etishni nazarda tutadi. Ko'rsatmalilik tamoyili - talabalarda nafaqat tushunish, balki, mantiqiy tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish ko'nikmalarini shakllanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, nazariya bilan amaliyotning uyg'unligi tamoyili o'quvchilarda bilimlar va ko'nikmalarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishiga xizmat qiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga metodik tayyorlash jarayoni murakkab, ko'p qirrali va uzluksiz pedagogik jarayon bo'lib, u tizimli tashkil etilgandagina kutilgan natijaga erishish mumkin. Bizning fikrimizcha, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga metodik tayyorgarligini takomillashtirish uchun bosqichma – bosqich yondashuv qo'llanilishi zarur. Bu bosqichlar o'z mazmuni, metodik yondashuvlari, shakl va uslublari, shuningdek, erishish lozim bo'lgan natijalari bilan bir-biridan farq qiladi. Har bir bosqich pedagogik jarayonning maqsadga muvofiqligini, didaktik samaradorligini va individual rivojlanishni ta'minlovchi omil sifatida qaraladi: fundamental bosqich, motivatsion-analitik bosqich, metodik-kognitiv bosqich, reflektiv-ijodiy bosqich, natijaviy-monitoring bosqichi. Har bir bosqichda metodik ishlar aniq vazifalar va vositalar bilan belgilanadi. Jumladan, tayanch bosqichida nazariy bilimlar asoslanadi, motivatsion bosqichda qiziqish uyg'otiladi, kognitiv bosqichda murakkab fikrlash topshiriqlari tatbiq qilinadi, reflektiv bosqichda o'z-o'zini baholash va tahlil amalga oshiriladi, natijaviy bosqich esa samaradorlikni monitoring qilishga xizmat qiladi. Har bir bosqichda o'quvchi faoliyatining faollik darajasi, topshiriqlarning murakkablik koeffitsiyenti va o'zlashtirish uslublari konkret yondashuvlar asosida aniqlanadi.

Bu bosqichlarning samarali ishlashi uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim omil sifatida ta'kidlangan: interfaol o'quv muhiti, zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlik, o'qituvchining tashabbuskorligi, erkin muloqotga asoslangan dars dizayni, ijtimoiy hamkorlik, hamkorlikda fikrlashga asoslangan topshiriqlar tizimi. Dissertatsiyada ushbu tamoyillar, bosqichlar va metodik yechimlarning uzviy bog'liqligi asosida bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini mustahkamlovchi, mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan samarali pedagogik model shakllantirilgan. Bu yondashuvlar orqali o'qituvchining faqat nazariy emas, balki amaliy-ijodiy jihatdan ham mukammallashuvi ta'minlanadi, natijada u zamonaviy, reflektiv, kompetent va innovatsion fikrlovchi pedagog sifatida shakllanadi. Dissertatsiyada mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodik faoliyat mazmuni, uni shakllantirishda qo'llaniladigan didaktik yondashuvlar, shart-sharoitlar, interaktiv metodlar va innovatsion vositalarning o'rni haqida tegishli ko'rsatmalar


berildi. Shuningdek, ilgari surilgan ilmiy-nazariy qarashlar asosida bosqichma-bosqich mantiqiy fikrlashni rivojlantirish modeli ishlab chiqildi va u orqali o'quvchilarda fikrlashning izchilligi, tahliliy va umumlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi. Model o'zaro bog'langan to'rtta asosiy blokdan iborat: maqsadli blok, tashkiliy-metodologik blok, pedagogik – jarayonli blok, natijaviy baholash bloki. Har bir blok tarkibida amaliyotga yo'naltirilgan komponentlar tizimi aniq ko'rsatib berilgan.

Maqsadli blokda bo'lajak o'qituvchilarning mantiqiy fikrlashga oid metodik salohiyatini shakllantirishga qaratilgan aniq maqsadlar va vazifalar belgilab olingan. Tashkiliy-metodologik blokda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mantiqiy tafakkurini rivojlantirish uchun mavjud bo'lgan shart-sharoitlar, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun yondashuvlar, tamoyillar va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni mantiqiy fikrlashini rivojlantirish bosqichlari batafsil yoritib berilgan. Pedagogik – jarayonli blokda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga metodik tayyorgarligini takomillashtirishning omillari, shuningdek mashg'ulotlarni tashkil etish shakllari, ushbu jarayonda qo'llaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalar va zarur bo'ladigan vositalar ko'rsatib o'tilgan. Ushbu blokda interfaol metodlar, muloqotga asoslangan mashg'ulotlar, o'yin texnologiyalari, reflektiv topshiriqlar, bosqichma-bosqich mashqlar kabi elementlar to'plami bilan to'ldirilgan. Natijalarni shakllantirish (natijaviy) blogida baholash mezonlari va respondentlar darajalari aks etgan. 1-rasmda tasvirlangan grafik model asosida ushbu tuzilma vizual ifodalanadi. Grafik struktura o'z ichiga o'qituvchi tayyorgarligining asosiy bosqichlarini, komponentlararo bog'liqlikni, faoliyat yo'nalishlarini hamda natijaviy ko'rsatkichlar mezonlarini qamrab oladi.

Bu model orqali bo'lajak o'qituvchining mantiqiy tafakkurga tayyorlik darajasi izchil rivojlantiriladi, uning metodik mustaqilligi, ijodiy salohiyati va tahliliy qaror qabul qilish layoqati shakllanadi.

Shuningdek, model asosida tuzilgan metodik tizim o'qituvchining o'z faoliyatini tanqidiy baholay olishi, muammoni aniqlab, unga mos pedagogik yondashuvni tanlashi, o'quvchini fikrlashga jalb etish strategiyasini shakllantirishi kabi ko'nikmalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa, natijada, o'qituvchining o'quvchilarda mantiqiy tafakkurni shakllantirishga tayyorgarligini tizimli ravishda takomillashtirishga zamin yaratadi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish texnologiyalari qismida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, o'yinli faoliyat hamda nostandart topshiriqlarning o'rni alohida tahlil qilingan. Jumladan, "Blits-o'yin" metodi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga, o'rganayotgan mavzu bo'yicha fikrlarni tezda shakllantirish va eng muhim ma'lumotlarni ajratib olishga yordam beradi. Bu metod orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ona tili bo'yicha turli tahliliy vazifalarni bajarish orqali dars jarayonida faol ishtirok etadilar.



**1-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga metodik tayyorgarligini takomillashtirish modeli**

“Sehrli harflar” o‘yini bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining fonetik tahlil, so‘z yasash va nutqiy mantiqni tushuntirishga oid metodik ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi mashg‘ulotlardan biridir. Mazkur o‘yin asosida talabalar fonemik tuzilma, morfologik birliklar, so‘zlarni mantiqiy birlashtirish va ularni tahlil qilish kabi tilshunoslik elementlarini o‘rgatish usullarini amaliy tarzda o‘zlashtiradilar. Ushbu o‘yinning metodikasini talabalarga o‘rgatish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Dastlab, talabalar o‘yinning asosiy maqsadi, tuzilishi va mazmunini nazariy jihatdan tahlil qiladilar. So‘ng, guruh shaklda “Sehrli harflar” o‘yining boshlang‘ich sinf uchun moslashtirilgan ssenariysini ishlab chiqadilar. Bu jarayonda harflar kartochkalarining mazmunini aniqlash, har bir harf asosida so‘z topish hamda bu so‘zlardan mantiqan bog‘liq gaplar tuzish bosqichlari metodik jihatdan izohlanadi. Mashg‘ulotning amaliy bosqichida talabalar bir-birlari bilan o‘qituvchi va o‘quvchi rollarini almashgan holda, o‘yinni dars jarayoniga moslashtirib sinovdan o‘tkazadilar. Ular o‘yin davomida bolalarda mantiqiy izchillik, bog‘liqlik, tahlil qilish, umumlashtirish va sintetik fikrlash kabi ko‘nikmalar qanday shakllanishini kuzatadilar. Dars so‘ngida esa o‘zlarining tajribasi asosida o‘yinning ta’limiy samaradorligi, mantiqiy fikrlashga ta’siri hamda bolaning tafakkur jarayoniga bo‘lgan yuklamasi haqida mulohazalar yuritadilar.

